

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abduqodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукрова	
Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони	
Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
Х.С.Шукрова	
Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии	
профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и	
английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital	
identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO'K: 81'373.7:811.512.3

O'ZBEK TILIDAGI EVFEMIZMLARNING BADIY ASARLARDA QO'LLANILISHI**THE USE OF EUPHEMISMS IN UZBEK LITERATURE****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ****Po'latova Irodaxon Ilhomjon qizi**¹Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili amaliy kursi" kafedrasи o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada evfemizmlar badiiy asarlarda tilning estetik kuchini oshiruvchi, fikrni engil va nozik ifodalashda muhim vosita sifatida ishlatalishi haqida so'z boradi. Ular asarlarning hissiy-ta'sirchanligini kuchaytiradi va o'quvchi yoki tinglovchiga qo'pol yoki noxush mavzularni yumshoqroq tarzda etkazishga imkon yaratadi. Badiiy adabiyotda evfemizmlar asosan o'lim, kasalilik, ijtimoiy taqdirlar va boshqa salbiy holatlar haqida gapirilganda qo'llaniladi. Shuningdek, evfemizmlar badiiy asarlarda inson tabiatini chuqurroq ifodalash, qahramonlarning ruhiy holatini tahlil qilishda ifodalanadi. Ular yordamida yozuvchi o'z asarida ijtimoiy muammolarni yumshoq tarzda kiritishi, o'quvchini ularga yangicha nuqtayi nazardan qarashga undashi mumkin.

Abstract

This article discusses the use of euphemisms in literary works as a means to enhance the aesthetic power of language and to express ideas in a delicate and subtle manner. Euphemisms increase the emotional impact of the texts and allow writers to convey harsh or unpleasant themes in a softer way. In fiction, they are often employed when addressing topics such as death, illness, social issues, and other negative realities. Euphemisms are also used to portray human nature more deeply and to reflect the psychological state of characters. Through euphemisms, writers can gently introduce social problems into their works and encourage readers to view them from a new perspective.

Аннотация

В статье рассматривается использование эвфемизмов в художественной литературе как средства усиления эстетической выразительности языка и деликатной передачи мыслей. Эвфемизмы усиливают эмоциональное воздействие произведений и позволяют мягко передавать грубые или неприятные темы. В художественной литературе они используются при описании смерти, болезней, социальных проблем и других негативных явлений. Также эвфемизмы помогают глубже раскрыть человеческую природу и внутреннее состояние персонажей. С их помощью автор может деликатно включать в текст социальные проблемы и побуждать читателя взглянуть на них под новым углом.

Kalit so'zlar: evfemizm, o'lim, tiriklik, evfema, madaniyat, urf-odat, irim-sirimlar, ruhiy holat.**Ключевые слова:** эвфемизм, наука, жизнь, эвфемизм, культура, обычаи, тайны, духовность.**Key words:** euphemism, science, life, euphemism, culture, customs, mysteries, spirituality.**KIRISH**

Har bir millatning o'ziga xos bo'lgan madaniyati, urf-odati va ularga bog'liq bo'lgan irim-sirimlari mavjudki, ular xalqning o'y-fikrlari, turmush-tarzi, kundalik hayotidan darak berib turadi. Xususan, o'lim hodisasi haqida so'z borganda quyidagi irimlarga duch kelamiz. Yapon xalqi odatda o'lgan insonlarning boshini shimol tomonga qaratib yotqizadilar. Shu sababli ham ular o'zlarini o'liklarga o'xshab qolmasliklari uchun uylashayotgan paytda boshlarini shimol tomonga qaratishmaydi. Yana biri esa ular vafot etganlarning bosh tarafiga bir piyola guruch qo'yib, ichiga ovqat iste'mol qilish uchun tayoqchalar qo'yadilar[1].

O'zbek xalqining ba'zi bir qishloqlarida shunday odat bor ya'ni mayitdan qo'rqqan yoki vahimaga tushgan odamga qabristonning tuprog'idan olib kelib, suv bilan aralashtirib u insonga ichiriladi. Bu odat qo'rquvni bosish uchun yordam berishini ta'kidlaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

A.Qahhorning „Dahshat“ hikoyasida shu odat xususida ham so'z ketgan. Nodirmohbegim Unsining savoliga javob bermadi, tovush chiqarmay yana ham qattiqroq yig'lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo'ydi; so'ng, o'sha chog'i odam yuborib go'ristondan oldirgan ikki chimdim

tuproqni yarim piyola suvgaga chayib Unsinga tutdi. – Ich, jigaram, qo'rqqansan... Go'ristonda qo'rqqanga go'ristonning tuprog'i davo bo'ladi. Unsin piyoladagi loyqa suvni darrov ichdi va xiyla engil tortganday bo'lidi[2].

Abdulla Qahhorning „Tanlangan hikoyalar” nomli to'plamidagi „Xotinlar” hikoyasida ham *Judo bo'imoq* evfemistik birligidan quyidagicha foydalilanigan: Agar muhabbat shunday kezlarda to'kiladigan ko'z Yoshi bilan o'lchansa, yuzta Shirin-u, yuzta Laylining muhabbatni buniga urpoq ham bo'lmas edi! „*Judolik*” degan so'z bino bo'lganidan beri bunaqa ko'z yoshini ko'rmagandir... Ana yig'i-yu mana yig'i “.(66-bet) Bundan tashqari, shu hikoyadagi qahramon G'afforjon tomonidan aytilgan *kuni bitmoq* iborasi ham uning qanchalik yumshoq fe'lli inson ekanligiga ishora beradi: *Kunim bitgan* bo'lsa-yu, o'q tegsa „Onajon! deb yiqilarmikinman, „Umrixon!” deb yiqilarmikinman?”.(67-bet) Bundan tashqari, adibning „*Nurli cho'qqilar*” nomli hikoyasida qo'llanilgan quyidagi epigrafda ham o'limni ifodalovchi evfemistik birlikni anglashimiz mumkin bo'ladi:

Goho er mehrini o'yarkan,
Esga tushar dorning siyog'i,
Ajab hikmat; odam o'larkan
Uzilganda ... erdan oyog'i (Abdulla Oripov)(124-b.)

Hikoyaning quyidagi „Kampir o'sha yotganicha qovun pishig'ida biroz o'ngarilib o'rnidan turdi, lekin ko'p o'tmay yana yotib qoldi, shu yotganicha bo'lak turmadi – *vafot qildi*” jumlasida ham o'lib qolmoq tabusining yumshoq shaklini uchratamiz.

Mashhur adib Abdulla Qahhorning „Bemor” hikoyasiga yuzlanar ekanmiz, yozuvchi tomonidan aytilgan quyidagi jumlada ham evfemizmning yorqin misoli keltirilgan: „, Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qayta ochmadni- *saharga borib (joni) uzildi* ”. Yozuvchining „Dahshat” nomli hikoyasida esa quyidagi satrlarda uchratishimiz mumkin: “*Nodirmohbegim* yana kaltaklanishidan hayiqmay, Ganjiravonga bir xizmatkorini yubordi. Biroq Unsin peshingacha etmadi — *uzildi*; „*Bu dargohni endi elkamning chuquri ko'rsin*” deganday bir harakat bilan keskin burilib aravaga chiqdi, *marhumaning bosh tomoniga o'tirdi*”[3].

Yozuvchilar evfemizmlardan asarda matn mazmunini yumshoqroq bayon etishda hamda qahramonlarning vafot etgan yaqiniga nisbatan hurmat ma'nosini ochib berishda qo'llaydilar: - „, Saodat aya bomdod namozini o'qib, joynamoz poyida uzoq o'tirib qoldi. Bundan uch yil oldin *olamdan o'tgan* eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qildi”. - „, Aslini olganda, uning *umri tugagan* edi. Bu xushxabar uning tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o'chish oldidan bir lop etishiga o'xshardi”. - „, Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina *jon berdi*”.- „, Qorako'z kampirning ovozi kelayotgan bolaxona tomoniga yuzini burgancha *jonsiz yotardi*”[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Taniqli adib Said Ahmad o'z asarida kishining yaqin fursatda jon bergan holatini aks ettirishda quyidagi evfemistik birliklarni qo'llagan: „, O'ttiz uch yil dukkilab muttasil urib turgan *yurak* endi *urishdan to'xtagan* edi; *Yetdim, deganda yiqilgan* Dadajonning bu *dunyoga to'ymagan*, erkinlik yo'liga intizor tikilgan ko'zlarini endi *bir umrga yumildi*; Jangda o'lim bilan yuzlashgan qahramonlarga nisbatan esa „, Mening sodiq va vafodor do'stim, o'ttiz etti qochoq mahbusni tutib bergan va o'zi yovuz mahbus qo'lida *halok bo'lgan* Jek nomli itga minnatdor do'sti general mayor Maksim Mixaylovich Rechnikovdan”; „, Uning gapiga qaraganda, bu qushlar oddiy qushlar emas, mana shu tep-tekkis bo'lib ketgan qabrlardagi azob-uqubatlarda *shahid bo'lgan* begunoh insonlarning bir kalima tilovatga ilhaq bo'lib yotgan ruhlari emish” kabi evfemistik birliklar qo'llangan. „, Yaqinda shu Bobil farzandi tutqanoq kasaliga uchrab *olamdan o'tdi*. Bobilliklarning yana bittasi *dunyodan ketdi*”; „Mahbuslarga uylarini, qishloqlarini, bola-chaqalarini eslatib har oqshom, har sahar qichqiradigan xo'roz ularning ko'zlarini oldida qonga belanib *jon berdi*”[5]

Adibning „, Hech kim va hech narsa unutilmaydi” nomli hajviyasida *tug'ilish* hamda *o'lim* bilan bog'liq bo'lgan evfemizmlarga murojaat qilinganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi: „, Shu bechora(Turdivoy) Ilimiliq yurib- yurib o'n etti yil deganda *farzand ko'rdi*”; „, Yillar o'tdi. Turdi Ilimiliq ham qaridi. Do'stlari birin-ketin bu *yorug' olamni tark qilib ketishdi*”; „, U sap-sariq, qop-qora, bug'doyrang farzandlariga har qaraganda *marhum* do'stlarini aniq ko'rgandek bo'ladi”. Yozuvchining „, Omonat” nomli hajviyasida ham evfemizatsiya hodisasini uchratamiz: „, Ana

TILSHUNOSLIK

shundan keyin ko'pchilik bo'lib, boshbuxni qabristonga olib ketishdi. Uni *qabrga qo'y may* turib, jindek nutq ham bo'ldi"; „- Dod, dod! *Omonatimdan ayrlidim*, omonatginamdan ayrlidim"; „Do'st degan shundoq oqibatli bo'lishi kerak. Aziz birodari *qazo qilganiga asti chidamayapti*". „ Tosh" nomli hajviyasida esa tug'ilish bilan bog'liq evfemizmlar ham o'rinni olgan: „ Bir idoraning boshlig'i *farzand ko'radi*"; „Xudo bizga bir o'g'il berdi". „Qo'Idoshich bir – ikki marta tamshanib, zo'rg'a: - Jiyanchadan judo bo'lib qoldik, -deyoldi" ("Qo'Idoshich" hajviya). Bu hikoyalardan tashqari, adibning, "Luqmon" hajviyasida mo'ysafid insonlar tobutni ko'rib o'lganning orqasidan yomonlab bo'lmasligini, andisha qilib „ Luqmonbekdan *ayrilib qoldik*" birikmasini keltiradilar. Bu erda millatimizning qay darajada andishali hamda or-nomusli ekanligi asar qahramonining kirdikorlarini bila turib o'tgan insonga nisbatan odamgarchilik nuqtayi nazaridan *o'lib qoldi* disfemizmi *ayrilib qoldik* evfemizmi bilan yumshatilganligini anglashimiz mumkin bo'ladi. Asar qahramonining uyini „*baxtsizlik yuz bergen joy*" – deb, ta'riflaydi yozuvchi.

Said Ahmadning „ Buzoq" nomli hajviy hikoyasida qahramon Sotimjonning onasi bir necha yillar avval vafot etganini muallif quyidagicha ifodalaydi: „ Onasini so'radim. Bechora bundan o'n bir yil oldin *qazo qilgan ekan*". Hikoyada Sotimjon fermada harom o'lib qolgan sigir haqida so'z yuritganda unga nisbatan „govmushimdan *ayrilib qoldim*" birikmasini qo'llaydi.

Anvar Omonturdiyev o'zining „Professional nutq evfemikasi" nomli monografiyasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari chorvadorlari nutqini o'rganib, ularning kundalik hayotida qo'llanuvchi motam-marosim nomi bilan bog'liq evfemalarini qo'llanilish usslublari va turlari haqida so'z yuritar ekan, muallif o'lim va u bilan uzbek bog'langan evfemizmlarga to'xtalib o'tadi. Xususan, o'lib qolgan insonga nisbatan „ falonchi" nikiga janozaga! evfemasi orqali odamlarga etkazilishi aytib o'tiladi. Bundan tashqari "yettisi", "qirqi" yoki yili nomlari o'tganiga "yeti kun" yoki "bir yil" bo'ldi tushunchalariga nisbatan evfema hisoblanadi. Yaqin qarindoshi o'lgannini ifodalashda "ko'k kiyibdi" yoki "azador" atamalari qo'llanilganligi, agarda o'lganiga bir yil to'igan bo'lsa "oq o'rabi" tushunchalari qo'llanilishi ham izohlab berilgan.(136-b) Bundan tashqari olim evfemik signifikatorga ham to'xtalib, uning avvalgi ya'ni "qon yalagan", "qonini to'kkani", "qoningni ichaman", "qoningni simiraman", "boshiga etdi", "go'shtingni yeymen", "boshini yedi", "yuragingni kavoblab yeymen", "jonga jon, qonga qon olaman" hamda hozirgi kunda evfema hisoblangan "yo'qotmoq", "gumdon qilmoq", "nobud qilmoq", "asfalasofilinga jo'natmoq" kabi misollarning farqlarini berib o'tgan(15-bet).

XULOSA

Evfemizm badiiy matnlarni tahlil qilishda ijtimoiy va madaniy konteksti chuqurroq anglashga yordam beradi. Yozuvchi, evfemizmlar yordamida jamiyatda mavjud bo'lgan tabu yoki noaniq mavzularga ishora qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon nafaqat yozuvchining stilistik xususiyatlarini, balki o'quvchining matnni qanday qabul qilishini ham shakllantiradi. Bundan tashqari, evfemizm asarda personajlar obrazini yaratishda, ularning ichki dunyosini va xulq-atvorini ochishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, qadimgi adabiyotlarda, xususan, dindorlik va axloqiy normalar bilan bog'liq mavzularda evfemizm ishlataligan. Bu, o'z navbatida, asarning madaniy va tarixiy mohiyatini yaxshiroq anglashga imkon beradi. Biroq, evfemizmnning haddan tashqari ishlatalishi ba'zan matnni sun'iy va tabiiy bo'lmagan holga keltirishi mumkin. Shuning uchun badiiy asarlarda evfemizmnning muvozanatli va o'rinni qo'llanishi juda muhimdir. Yozuvchining san'ati, tilni faqat badiiy bezak sifatida emas, balki asar mazmunining chuqurligini ochish va o'quvchining ruhiy holatini boshqarish vositasi sifatida ishlatalishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isomiddinov F., Yusupov I. Irim- sirimlar. – Farg'ona. 2020.
2. Abdulla Qahhor „ Daxshat" hikoyalari to'plami
3. www.ziyo.uz.com kutubxonasi
4. Said Ahmad. Qorako'z Majnun(hikoya) <http://www.ziyouz.com>
5. Said Ahmad. „ Taqdir, taqdir, muncha shavqatsizsan? (hikoya)
6. A.J.Omonturdiyev „Professional nutq evfemikasi" monografiysi. T. FA „Fan" nashriyoti, 2006 yil(231Bet)
7. Husainov, M. (2016). *Badiiy til va uning ifoda vositalari*. Toshkent: Ijtimoiy Fikr.
8. Shakarov, A. (2013). *Adabiyotda tilning uslubiy xususiyatlari*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Gavrilova, S. (2015). *Euphemism in Modern English and its Functions in Literary Texts*. Moscow: Publishing House of the Russian State University for the Humanities.
10. Dahl, O. (2000). *The Role of Euphemism in Language*. Stockholm: Stockholm University Press.

11. Xodjayev, S. (2007). *Til va uning estetikasidagi evfemizm*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
12. Turaeva, Z. (2018). *Evfemizm va badiiy uslub*. Toshkent: Yangi avlod.
13. Lobanov, V. (2012). *Evfemizm va uning zamonaviy adabiyotdagi ro'li*. Moskva: Nauka.
14. Abduqodirov, K. (2019). *Adabiyot va til: Yangi yondashuvlar*. Toshkent: Sharq.
15. McGregor, W. (2009). *Euphemism and its Use in Literary Texts*. Cambridge: Cambridge University Press.
16. Khudoyberganov, N. (2014). *Badiiy matndagi stilistik uslublar*. Toshkent: Ma'naviyat.